

**HUDUDLARDA YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING
TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI**

Saidov Sanjar Ravshanovich,

MOQ Toshkent shahar hududiy bo'linmasi ijrochi direktori

sanjarphone@gmail.com

Annotatsiya. *Tezisdan O'zbekiston hududlarida yoshlar bandligini ta'minlash va ularni iqtisodiy qo'llab-quvvatlashning amaldagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari, Yoshlar ishlari agentligining rasmiy ma'lumotlari hamda Jahon bankining O'zbekistonda yoshlar bandligiga bag'ishlangan tadqiqotidan foydalanilgan. Yoshlarni ish bilan ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish, "Yoshlar daftari" orqali manzilli yordam ko'rsatish va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash natijadorligini monitoring qilish tizimiga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *yoshlar bandligi, yoshlar siyosati, Yoshlar daftari, mahalla, kasb-hunar, iqtisodiy ko'mak, monitoring, samaradorlik.*

O'zbekistonda yoshlarni band qilish, kasb-hunarga o'qitish va iqtisodiy faolligini oshirish yoshlarga oid davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-son Qonunda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun shart-sharoit yaratish davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan¹.


2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son Farmon bilan yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqishning institutsional asoslari shakllantirildi². 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qaror bilan esa mahallalarda yoshlar yetakchisi

¹ O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida". O'RQ-406-son, 2016-yil 14-sentabr. URL: <https://lex.uz/docs/3026246>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6017-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida". 2020-yil 30-iyun. URL: <https://lex.uz/docs/4880129>.

lavozimi joriy etilib, yoshlar bilan ishlash tizimi bevosita mahalla darajasigacha tushirildi³.

Mazkur mexanizm yoshlar bandligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki yoshning bandlik holati, kasbiy ko'nikmasi, ijtimoiy holati va iqtisodiy muammolarini yashash joyining o'zida aniqlash imkoniyati yaratildi. Yoshlar to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirishda "yoshlar balansi" asosiy axborot manbalaridan biri sifatida foydalanilmoqda⁴.



1-rasm. Yoshlar bandligini qo'llab-quvvatlashning amaldagi mexanizmi⁵

Yoshlar ishlari agentligining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil boshida 9 452 ta mahallada o'tkazilgan xatlov natijasida 8,3 mln nafar yoshning "yoshlar balansi" shakllantirilgan⁶. Mazkur tizim yoshlarning individual muammolari, qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib manzilli chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi.

Yoshlar bandligi bo'yicha 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar iqtisodiy mexanizmning bir nechta shaklda ishlayotganini ko'rsatadi. Yoshlar ishlari agentligining rasmiy ma'lumotida 342 ming nafar ishsiz yoshning bandligi

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-92-son qarori. "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". 2022-yil 19-yanvar. URL: <https://lex.uz/docs/5831865>.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktorining 2024-yil 30-oktabrdagi 01-10/169-son buyrug'i. "Mahalladagi yoshlar yetakchisining namunaviy lavozim yo'riqnomasi". URL: https://api-portal.gov.uz/uploads/949d5c17-918f-3411-27b1-891949b404ea_media.pdf.

⁵ PQ-92-son qaror, yoshlar yetakchisi lavozim yo'riqnomasi va Yoshlar ishlari agentligi materiallari asosida tuzilgab.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. "Yoshlar bilan ishlash borasida 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar va Yoshlar forumi 2024 yakunlari bo'yicha brifing". URL: <https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/31498>.

ta'minlangani qayd etilgan. Shuningdek, "Kelajak kasblari" loyihasi doirasida 18,6 ming nafar yosh uchun o'quv kurslari tashkil etilgan hamda 1 814 ta mahalla "Yoshlar ishsizligidan xoli hudud" sifatida qayd etilgan⁷.

Kasbiy tayyorgarlikning bandlik bilan bog'lanishi alohida ahamiyatga ega. Jahon bankining O'zbekistondagi yoshlar bandligiga bag'ishlangan tadqiqotida yoshlarning ta'limdan mehnat bozoriga o'tish jarayonida tajriba yetishmasligi, ish beruvchilar talab qiladigan ayrim ko'nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi va ish qidirish bilan bog'liq muammolar ko'rsatilgan⁸. Shu jihatdan hududiy boshqaruv tizimida kasbiy tayyorlash va bandlik choralarining o'zaro bog'liq holda amalga oshirilishi muhim hisoblanadi.


Yoshlarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlashning yana bir vositasi "Yoshlar daftari" tizimidir. 2024-yil bo'yicha rasmiy ma'lumotlarda "Yoshlar daftari" orqali 141 ming nafar yoshga 209 mlrd so'mlik ko'mak ko'rsatilgani qayd etilgan. Mazkur yordam yoshlarning turli ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qoplashga yo'naltirilgan.

Bundan tashqari, 2024-yil yakunlari bo'yicha 377 ming nafar yosh uchun "fuqarobay" ishlab chiqilgan "Yoshlar bandligi dasturi" doirasida ishlar tashkil etilgan. 152 742 nafar yoshga dehqonchilik qilish uchun "mahalla yettiligi" tavsiyasi asosida 56 ming gektar unumdor yer maydoni ajratilgan. Rasmiy ma'lumotga ko'ra, ikki mavsum davomida mazkur yer maydonlarida 165,4 ming tonna mahsulot yetishtirilgan⁹.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. "Yoshlar bilan ishlash bo'yicha 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan brifing". URL: <https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/28502>.

⁸ Honorati M., Marguerie A.C. Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges. Washington, D.C.: World Bank Group, 2021. Report No. 165274. URL: <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/666311634704762319>.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. "Yoshlar bilan ishlash borasida 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar va Yoshlar forumi 2024 yakunlari bo'yicha brifing". URL: <https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/31498>.



2-rasm. Hududlarda yoshlar bilan ishlashning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv sikli¹⁰

Biroq iqtisodiy resurslarni ajratishning o'zi tizim samaradorligini to'liq tavsiflamaydi. Shu sababli Yoshlar ishlari agentligining samaradorlik metodologiyasida ajratilgan imtiyoz va subsidiyalarning manzilli sarflanishini monitoring qilish, yaratilgan ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlarni tegishli davlat axborot bazalari bilan solishtirish va natijalarni KPI asosida baholash mexanizmlari belgilangan¹¹.

Hududlarda yoshlar bandligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirishda mavjud tizim doirasidagi uchta yo'nalish muhim hisoblanadi. Birinchidan, "yoshlar balansi"dagi bandlik holati to'g'risidagi ma'lumotlarni muntazam yangilab borish zarur. Ikkinchidan, ajratilgan iqtisodiy ko'mak natijasini faqat mablag' miqdori bilan emas, balki yoshning band bo'lishi, kasbiy ko'nikmaga ega bo'lishi va iqtisodiy faoliyatini davom ettirishi kabi natijalar bilan bog'lab kuzatish lozim. Uchinchidan, bandlik, soliq va ijtimoiy himoya axborot bazalari bilan ma'lumot almashinuvini amaldagi elektron monitoring mexanizmlari doirasida izchil olib

¹⁰ Yoshlar ishlari agentligining samaradorlik metodologiyasi va rasmiy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. "Samaradorlik metodologiyasi". URL: <https://gov.uz/oz/yoshlar/pages/samaradarlik-metodologiyasi>.

borish muhimdir.

Hududlarda yoshlar bandligini ta'minlash mexanizmlarini baholashda Germaniya, Finlyandiya va Janubiy Koreya tajribasi e'tiborga loyiq. Germaniyada Jugendberufsagenturen modeli bandlik agentliklari, Jobcenter va yoshlar ijtimoiy xizmatlarini muvofiqlashtiradi; ko'plab hududlarda maktablar ham hamkor sifatida ishtirok etadi. Federal mehnat agentligi ushbu modelning asosiy maqsadini yoshlarning ta'limdan kasbiy tayyorgarlik va mehnat bozoriga o'tishini "bir qo'ldan" qo'llab-quvvatlash deb belgilaydi¹².

Finlyandiya 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar uchun Ohjaamo "bir darcha" maslahat markazlari faoliyat yuritadi. Ular ish qidirish, ta'lim, uy-joy va kundalik hayot masalalari bo'yicha bepul maslahat beradi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Ohjaamo markazlari barcha hududlarni qamrab oladi va yoshlarni zarur xizmatlarga tez yo'naltirishga qaratilgan¹³.


Janubiy Koreyada Mehnat va bandlik vazirligi mahalliy hokimiyatlar bilan hamkorlikda Youth Growth Project dasturini amalga oshiradi. Dastur ish qidirishdan voz kechish xavfi mavjud bo'lgan ishsiz yoshlarni mahalliy darajada aniqlash, ularning motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash va mavjud bandlik siyosati choralariga ulashga qaratilgan¹⁴.

Mazkur tajribalar uchun umumiy jihat - xizmatlarni yoshga yaqin hududiy darajada tashkil etish, idoralararo hamkorlik va individual ehtiyojga qarab yo'naltirishdir. O'zbekiston sharoitida bu tajriba amaldagi mahalla tizimini almashtirish emas, balki yoshlar yetakchisi, bandlik organlari, ta'lim muassasalari va ijtimoiy himoya tizimi o'rtasidagi ma'lumot va xizmat almashinuvini kuchaytirish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

¹² Bundesagentur für Arbeit. Jugendberufsagenturen: Arbeitsbündnis für bessere Integration Jugendlicher. URL: <https://www.arbeitsagentur.de/institutionen/jugendberufsagenturen>.

¹³ Ohjaamo. What is Ohjaamo? One-Stop Guidance Center for persons under 30. URL: <https://ohjaamo.fi/en/mika-on-ohjaamo>.

¹⁴ Ministry of Employment and Labor, Republic of Korea. Youth Growth Project. 2024. URL: https://www.moel.go.kr/info/govsupport/govsupportcon/govSupportSubView.do?bbs_seq=20240800372.



3-rasm. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha xalqaro tajribaning qiyosiy modeli¹⁵

Shunday qilib, O'zbekistonda yoshlar bandligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi mahalla darajasidagi manzilli boshqaruv, "yoshlar balansi", kasbiy tayyorlash, ish bilan ta'minlash, "Yoshlar daftari" orqali iqtisodiy ko'mak va natijadorlik monitoringining o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Mavjud mexanizmlarning izchil va natijaga yo'naltirilgan holda qo'llanilishi hududlarda yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida". O'RQ-406-son, 2016-yil 14-sentabr. URL: <https://lex.uz/docs/3026246>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6017-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida". 2020-yil 30-iyun. URL: <https://lex.uz/docs/4880129>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-92-son qarori. "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". 2022-yil 19-yanvar. URL: <https://lex.uz/docs/5831865>.

¹⁵ Bundesagentur für Arbeit, Ohjaamo va Janubiy Koreya Mehnat va bandlik vazirligi rasmiy materiallari asosida tuzilgan.

4. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktorining 2024-yil 30-oktabrdagi 01-10/169-son buyrug'i. "Mahalladagi yoshlar yetakchisining namunaviy lavozim yo'riqnomasi". URL: [https://api-portal.gov.uz/uploads/949d5c17-918f-3411-27b1-891949b404ea_media .pdf](https://api-portal.gov.uz/uploads/949d5c17-918f-3411-27b1-891949b404ea_media.pdf).
5. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. "Yoshlar bilan ishlash borasida 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar va Yoshlar forumi 2024 yakunlari bo'yicha brifing". URL: <https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/31498>.
6. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. "Yoshlar bilan ishlash bo'yicha 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan brifing". URL: <https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/28502>.
7. Honorati M., Marguerie A.C. Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges. Washington, D.C.: World Bank Group, 2021. Report No. 165274. URL: <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/666311634704762319>.
8. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. "Samaradorlik metodologiyasi". URL: <https://gov.uz/oz/yoshlar/pages/samaradarlik-metodologiyasi>.
9. Bundesagentur für Arbeit. Jugendberufsagenturen: Arbeitsbündnis für bessere Integration Jugendlicher. URL: <https://www.arbeitsagentur.de/institutionen/jugendberufsagenturen>.
10. Ohjaamo. What is Ohjaamo? One-Stop Guidance Center for persons under 30. URL: <https://ohjaamot.fi/en/mika-on-ohjaamo>.
11. Ministry of Employment and Labor, Republic of Korea. Youth Growth Project. 2024. URL: https://www.moel.go.kr/info/govsupport/govsupportcon/govSupportSubView.do?bbs_seq=20240800372.